

## Xorazm Arxeologiya-Etnografiya Ekspeditsiyasi 1945-1948-Yillar Oralig‘I Tadqiqotlarida Voha Etnografiyasining O‘Rganilishi (Zargarlik Buyumlari Misolida)

*Normetova Mahfuza Alisher qizi*<sup>1</sup>

**Абстрактный:** Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция (ХАЭЭ) была основана в 1930-х годах и сыграла важную роль в археологических и этнографических исследованиях Средней Азии, в частности Хорезмского оазиса. Экспедиция С.П. Толстов, деятельность которого была сосредоточена не только на археологических раскопках, но и на изучении этнографических особенностей региона. В статье рассматривается этнографическая работа ХАЕЭ, ее значение и результаты исследований.

**Ключевые слова:** Тупроккала, Хорезм, ремесла, земледелие, ювелирные изделия, бисер, кораллы.

**KIRISH.** Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi 1937-yilda tashkil etilgan. Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi Xorazm vohasining qadimiy madaniyati, tarixi va etnografiyasini o‘rganish edi. S.P. Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya mintaqaning arxeologik yodgorliklarini o‘rganish bilan birga mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati va ijtimoiy tuzilmalarini ham o‘rganishga e’tibor qaratdi.

XAEEning etnografik tadqiqotlari mahalliy aholi bilan bevosita suhbatlar va kuzatuvlar asosida olib borildi. Ekspeditsiya a’zolari Xorazm vohasining turli qishloqlariga borib, mahalliy aholining turmush tarzi, oilaviy munosabatlari, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari va madaniy merosini o‘rganishdi. Shuningdek, ekspeditsiya davrida mahalliy aholining qadimiy kasblari, xususan, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ham o‘rganildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ikkinchi jahon urushidan keying davrda olib borgan tadqiqotlari (1945-1948) natijalari 1952-yilda nasr qilingan. Mazkur davr oralig‘ida salmoqi ishlari amalga oshirilib, boy tarixga ega Xorazm vohasi aholisining qadimgi davrdan shallanib kelgan madaniy durdonalar arxeologik izlanishlar va dala tadqiqotlari asosida o‘rganildi.

S.A.Trudnovskaya tomonidan Tuproqqa’l a yodgorligi qazish ishlari natijasida olingan taqinchoqlar va bezak buyumlari kabi san’at na’munalari tahlil qilib chiqilgan. Umuman olganda, taqinchoqlar to‘plami o‘ziga xos bo‘lib, aynan Xorazmga an’analairga xosdir. Qadimgi massaget an’analalariga borib taqaladigan, ammo dabdabali shoh saroyi sharoitiga moslashtirilgan oltin harbiy kamar mahalliy “sarmat taqinchoqlari” (uzuklar, bodom shaklidagi nishonlar) va milod boshlaridagi Yaqin Sharq an’analari elementlari bilan uyg‘unlashganligi aniqlangan[3. – C. 119-134.].

M.V.Sazonova tomonidan etnografik tadqiqot ishlari olib orilgan. Uning tadqiqotlarini quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

- I. Xorazmda dehqonchilik texnikasi tarixiga doir ma’lumotlar tahlili;
- II. Xorazmda harakatlanish vositalari tarixiga doir ma’lumotlar tahlili (Xiva aravasi);
- III. Xorazmdagi badiiy hunarmandchilik tarixi haqida ma’lumotlar tahlili. Mazkur qism o‘z ichida quyiadgi guruhlarga bo‘linadi:

<sup>1</sup> Urganch davlat universiteti mustaqil islanuvchisi



- a) Kulolchilik
- b) Chitgarlik

IV. Janubiy Xorazmdagi shaharlar, qishloqlar va turar joylar tarixi haqidagi ma'lumotlar tahlili;

V. Janubiy Xorazm o'zbeklari ijtimoiy tizimi tarixi bo'yicha materiallar;

VI. Janubiy Xorazm o'zbeklarining kolxozi xo'jaliklarida doir ma'lumotlar [2. – C. 247-318.].


K.L.Zadixina tomonidan Amudaryo deltasi o'zbeklari, ularning hududga kelib joylashishi tarixi, aholi etnik tarkibi, xo'jalik faoliyati, etnografik xaritasi masalalari o'rganilgan [1. – C. 319-326].

**METOD:** Mazkur masalani yoritishda tarix fanida ilmiy tadqiqotlar olib borishning asosiy usullaridan – adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni solishtirma tahlil qilish, tarixiylik prinsipi, xronologik tartibni hisobga olish, olingan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va ularni umumlashtirish, shuningdek, obektivlik va haqqoniylilik tamoyillariga tayanildi.

**MUHOKAMA:** Xorazmning antik davrga oid yodgorliklaridan topilgan arxeologik materiallarda ayollar bezaklari juda yaxshi ifodalangan. Ayniqsa, Tuproqqa'l'a saroyining markaziy qismidagi 51-xonada topilgan buyumlar to'plami alohida qiziqarli. Bu xona taxminan  $6,86\text{ m} \times 12,11\text{ m}$  maydonni egallab, kichik turar joy xonalarining rejasini kattaroq o'lchamda takrorlaydi va bir tomonidan saroyning turar joy qismiga, ikkinchi tomonidan esa tantanalni majmuuga tutashgan. Bu yerda, g'arbiy devordagi o'yilgan joy yaqinida, asosiy pol ustida, 1,55-1,60 m chuqurlikda bir qator buyumlar topilgan. Ular orasida orqa tomonida ilgak izlari bo'lgan kichik yassi bronza oyna (diametri = 7,5 sm), mayda munchoqdan (taxminan 300 dona) iborat marjon (munchoqlar pasta, shisha, marjon, granat, yoqut, pirit, oltin va kauri chig'anoqlaridan yasalgan) va ularning bir qismi ipga tizilgan tartibni saqlab qolgan (1-rasm), shuningdek, zarhal izlari bo'lgan yirik bronza yurak shaklidagi bezakli plastinkaning uchta qismi bor. Afsuski, yomon saqlanishi tufayli bezaklarning xarakterini aniqlash mumkin emas, ammo bezaklarning mavjudligi shubhasizdir. Topilma holati va Xorazmning III asrga oid mis tangasi bu buyumlar guruhining aniq sanasini belgilash imkonini beradi [3. – C. 120.].



1-rasm.  
1- Tuproqqa'l'adagi  
saroyning 51-  
xonasidan olinan  
marjon. 2 - Shu joyda  
sochilgan holatda  
topilgan munchoqlar,  
Kontur chizig'ida asl  
rangini aniqlab  
bo'lmaydigan  
munchoqlar  
ko'rsatilgan.



1 - pirit kristalli; 2 - granat-almandin; 3 - geshir; 4 - qahrabo; 5 - marjon; 6-9 - yoqut; 10 - oltin; 11-12 - ishlov berilgan chig‘anoq; 13 - sarmat qo‘rg‘onidan topilgan ishlov berilgan chig‘anoq; 14 - shisha qo‘shimchali oltin; 15 - sarmat qo‘rg‘onidan topilgan shunga o‘xshash munchoq; 16, 17, 19-21 - shaffof shisha; 18 - bronza (Qavat-qal‘a); 22-24 - shaffof bo‘limgan shisha; 25 – “Misr fayansi”; 26-28 - zarhallangan ikki qavatli shisha; 29-30 - mayda shaffof shisha munchoq; 31-35 - shaffof bo‘limgan “pasta” yirik munchoq.

Shuningdek, Tuproqqal'a qo‘rg‘onidan qazib olingen materialda bir xil texnikadagi, ammo boshqa turdag'i karnelian munchoqlarining yana ikkita namunasi mavjud. Bu juda katta munchoqlar yomon saqlanib qolgan pushti karneliandan yasalgan, bir tomoni olmos bilan burg‘ulangan (2-rasm). Mazkur ashyolar eramizning III va VI asrlari oralig‘iga oidligi ko‘rsatiladi.

**NATIJALAR:** Ekspeditsiya tadqiqotlari natijasida ikkinchi jahon urushidan keyin Tuproqqal'a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida voha antik davr madaniyatiga oid etnografik ma'lumotlar bilan tanishish imkoniy paydo bo'ldi. Tadqiqotlarda yodgorlikdan terib olingen zargarlik buyumlari, taqinchoqlar shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, yig‘ib olingen munchoqlarning tarkibi va xususiyatlari tahlil qilinib, jadvallar asosida bayon qilingan. Shu orqali Xorazm vohasida qadimgi davrdan shakllangan sohadagi an'analar va o‘ziga xosliklarni tadqiq qilish mumkin.

**XULOSA.** Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining etnografik faoliyati Xorazm vohasining madaniy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim rol o‘ynadi. Ekspeditsiya natijalari mintaqaning qadimiyligi madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar berdi. Bu tadqiqotlar nafaqat Xorazm vohasining madaniy merosini saqlab qolish, balki mintaqaning tarixiy rivojlanishini tushunish uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи // ТХАЭЭ. – М. 1952. Т. I.
- Сазонова М.В. К этнографии узбеков южного Хорезма // ТХАЭЭ. – М., 1952. Т. I.
- Трудновская С. А. Украшения позднеантичного Хорезма по материалам раскопок Топрак-кала // ТХАЭЭ. – М., 1952. Т. I.

